



TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI INVESTITSIYA VA QURILISH STATISTIKASI BO'LIMI

2019 YILNING YANVAR-FEVRAL
OYLARIDA QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari

hajmi -

392,6 mlrd.so'm

Yirik pudrat

tashkilotlari ulushi

- 16,3 %

Kichik tashkilotlar

va mikrofirmalar

ulushi -

33,9 %

Norasmiy sektor

ulushi –

49,8 %

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent viloyatida jami 392,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 63,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,3% hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni

tashkil etdi.


Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 33,9 % yoki 133,3 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,8 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 49,8 % yoki 195,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,4 %ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari	<ul style="list-style-type: none">• hajmi - 63,8 mlrd.so'm• o'sish sur'ati - 104,8 %
Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar	<ul style="list-style-type: none">• hajmi - 133,3 mlrd.so'm• o'sish sur'ati - 104,8 %
Norasmiy sektor	<ul style="list-style-type: none">• hajmi - 195,5 mlrd.so'm• o'sish sur'ati - 99,4%



IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI

mlrd.so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 332,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 66,4 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 22,2 mlrd .so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,5 mlrd. so'mga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 37,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 6,7 mlrd. so'mga ko'paygan.



Yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 17,2 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 24,0 % (0,9 % ga kamaydi) va norasmiy sektorning ulushi 58,8 % ni (2,1 % ga ko'paydi) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 29,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,4% ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 70,3 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % ga kamaydi .

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga 100 % to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.



2019 yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar- fevral oyida 40,6 mlrd.so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 107,3 %ga bajarildi.


	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	2018 yil yanvar-fevralga nisbatan % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi
Toshkent viloyati	392,6	102,2	100
Nurafshon shahri	12,5	102,3	3,2
Olmaliq shahri	22,9	99,8	5,8
Angren shahri	14,6	101,4	3,7
Bekobod shahri	19,9	104,6	5,1
Ohangaron shahri	14,5	103,0	3,7
Chirchiq shahri	13,6	102,2	3,5
Yangiyo'l shahri	8,1	99,7	2,1
Oqqo'rg'on tumani	12,6	100,3	3,2
Ohangaron tumani	14,1	99,5	3,6
Bekobod tumani	14,7	100,7	3,7
Bo'stonliq tumani	20,1	101,7	5,1
Bo'ka tumani	10,7	100,3	2,7
Zangiota tumani	40,6	107,3	10,3
Qibray tumani	35,7	102,4	9,1
Quyichirchiq tumani	9,8	103,2	2,5
Parkent tumani	17,8	101,2	4,5
Piskent tumani	9,6	101,2	2,4
O'rtachirchiq tumani	21,8	99,8	5,6
Chinoz tumani	13,0	100,3	3,3
Yuqorichirchiq tumani	24,2	102,8	6,2
Yangiyo'l tumani	17,9	99,3	4,6
Toshkent tumani	23,9	105,5	6,1


Shuningdek, qurilish ishlari hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

- Qibray tumanida (35,7 mlrd. so'm yoki 102,4 %), Yuqorichirchiq tumanida (24,2 mlrd. so'm yoki 102,8 %), Olmaliq shahrida (22,9 mlrd. so'm yoki 99,8 %) va Toshkent tumanida (23,9 mlrd. so'm yoki 105,5 %) bajarilgan.


Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Yangiyo'l shahrida (8,1 mlrd. so'm yoki 99,7 %), Piskent tumani (9,6 mlrd. so'm yoki 101,2 %) va Quyichirchiq tumani (9,8 mlrd. so'm yoki 103,2 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





2019 yilning yanvar- fevral oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 10,3 %ini, Qibray tumanida 9,1 %ni va Yuqorichirchiq tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 6,2 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Yangiyo`l shahrida bu ko`rsatkich eng past 2,1 %ni tashkil etdi. Quyichirchiq tumani 2,5 %ni va Piskent tumanda 2,4 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



“Investitsiya va qurilish statistikasi” bo`limi

Nashirga mas`ul: B. Djavliyev

Tel.: 230-86-70, (71)